



MAKTABGACHA TA'LIMDA XORIJIY ILG'OR TAJRIBALARINI QO'LLASH

Mardonova Umida Norkulovna

Buxoro davlat pedagogika instituti

2-bosqich magistranti,

Mardonova-umida@mail.ru

Xamroyeva Xolida Yuldoshovna

Buxoro davlat pedagogika instituti

2-bosqich magistranti,

Xolida-bonus@mail.ru

Annotatsiya: *Ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yishda, eng avvalo, Janubiy Koreya, Yaponiya, Germaniya, Belgiya, Fransiya kabi rivojlangan xorijiy mamlakatlardagi maktabgacha ta'litzizimi faoliyatini keng o'rganish zarur haqida fikr-mulohazalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *tarbiya, zamonaviy talablar, xalqaro hamkorlik, xorij tajribalari.*

Аннотация: *При налаживании международного сотрудничества в сфере образования в первую очередь приводятся мнения о необходимости изучения деятельности системы дошкольного образования в развитых зарубежных странах, таких как Южная Корея, Япония, Германия, Бельгия, Франция.*

Ключевые слова: *образование, современные требования, международное сотрудничество, зарубежный опыт.*

Abstract: *When establishing international cooperation in the field of education, first of all, opinions are given that it is necessary to study the activities of the preschool education system in developed foreign countries such as South Korea, Japan, Germany, Belgium, and France.*

Key words: *education, modern requirements, international cooperation, foreign experiences.*

Davlatimiz rahbari yosh avlod tarbiyasi tizimining birinchi va muhim bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'limga rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. O'zbekistonda hozirda maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama, to'laqonli tarbiyalash, o'qitish va rivojlantirishni ta'minlaydigan o'ziga xos maktabgacha ta'lizimi shakllandi. Prezidentimiz Shavkat Miramanovich Mirziyoyev tashabbusi bilan dunyoning boshqa mamlakatlarida tengi yo'q Maktabgacha ta'liz vazirligi tashkil etildi.

Bu mamlakatimizda o'sib kelayotgan har bir bolaga ko'rsatilayotgan e'tibor va g'amxo'rlikning yuksak ifodasidir. Maktabgacha ta'liz tizimiga qaratilayotgan e'tibor zamirida yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash uchun qulay shart-sharoit yaratishdek katta va mas'uliyatli vazifa turibdi. Shu munosabat bilan qisqa muddatda mazkur sohani takomillashtirishga qaratilgan me'yoriy hujjatlar ishlab etildi.



chiqildi. Yangi tuzilmaning paydo bo'lishi sohada uzoq vaqt davomida paydo bo'lgan bir qator muammolar bilan bog'liq.

So'nggi yigirma yil ichida maktabgacha ta'lismi tashkilotlari soni 63 foizdan ko'proqqa ko'paydi. Lekin hozirgi kunda ularning moddiy-texnik bazasi zamonaviy talablarga javob bermaydi. Bundan tashqari, hozirgi maktabgacha ta'lismi tizimida o'zgaruvchan dasturlar mavjud emas edi.

Yana bir jiddiy muammo shundaki, maktabgacha ta'lismi muassasalari xodimlarining aksariyati o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lib, bu bolalarni maktabga yetarli darajada tayyorlashni ta'minlamaydi. Yangi davlat tuzilmasi ana shu muammolarni hal etish bilan shug'ullanadi.

Prezidentning "Maktabgacha ta'lismi tizimini boshqarishni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-son Farmoni, Prezidentning "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lismi vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3305-son qarori. 2017-yil 30-sentabrdagi qarorida tizimning samarali ishslashini ta'minlovchi asoslar belgilab berildi.

Ta'lismi sohasida ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish, xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish O'zbekistondagi yosh avlodning barkamol avlod bo'lib voyaga yetishishiga yordam beradi. Mamlakatimiz istiqboli, dunyo hamjamiyatidagi obro'-e'tiborining ortishida salohiyatli va bilimli yoshlarning o'rni benihoya kattadir. Bunday yoshlarning shakllanishi uchun esa ularning juda kichikligidanoq zamin qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Biz ulug' bobolarimizning munosib davomchilari bo'ladigan yetuk insonlarni tarbiyalash masalasiga, afsuski, yetaricha ahamiyat bermadik. Holbuki, intellektual va madaniy salohiyatning qanday noyob boylik ekani, nodir talant egalarini tarbiyalab kamolga yetkazish hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini unutishga haqqimiz yo'q. Rivojlangan mamlakatlar bugungi yuksak taraqqiyot darajasiga aynan shuning hisobidan yetgani-buhamhaqiqat. Zotan, islohotlarning muvaffaqiyati, mamlakatning dunyodagi rivojlangan, zamonaviy davlatlar qatoridan munosib o'rinni egallashi, avvalo, ilm-fan va ta'lismi-tarbiya sohasining rivojlanishi bilan, bu borada bizning dunyo miyisosida raqobatdosh bo'laolishimiz bilan uzviy bog'liq."

Bugungi kunda xorij tajribalaridan andoza olish, ijodiy yondashgan holda amaliyotda joriy etish, zamon talabiga mos ravishda me' yoriy hujjatlar, o'quv-metodik adabiyotlar, o'quv metodik majmualarni ishlab chiqish, ilg'or xorijiy tajriba asosida maktabgacha ta'lismi muassasalarining rahbar va mutaxassislarida zamonaviy menejment va pedagogik texnologiyalar bo'yicha sohaga oid bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirish vazifalari dolzarb masalalar sirasiga kiritilmoqda. Shu bois mamlakatimizda maktabgacha ta'lismi tizimini tubdan takomillashtirish yuzasidan farmon va qarorlar qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lismi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2016 yil 29 dekabrdagi PQ-2707- sonli, "Maktabgacha ta'lismi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 9-sentabrdagi PQ-



3261-son qarorlari, "Maktabgacha ta'lismiz tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 30-sentabrdagi PF-5198-sonli Farmoni shular jumlasidandir.

Yuqoridagi qaror va Farmoyishlarning ijrosini ta'minlashda bolalarni maktab ta'limga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga davlat talablarini, zamonaviy ta'lim dasturlarini tatbiq etish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashishlarini izchil davom ettirish maqsad qili bolindi.

Prezidentimiz huzurida 2017-yil 16-avgust kuni bo'lib o'tgan yig'ilishda maktabgacha ta'lismiz tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, mazkur muassasalarga bolalarni to'la qamrab olish bo'yicha muhim vazifalar qo'yilgan edi. Mazkur sohani takomillashtirish maqsadida qabul qilingan dasturda maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini sifatida, bu jarayonda maktabgacha ta'lim muassasalarining bolalar huquqiy savodxonligini shakllantirishdagi o'rni hamda respublikada ta'lim-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishi ekanligi ta'kidlangan.

Yangi sharoitlardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga murojaatnomasi 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" ta'limga zamonaviy metodologiyasini yaratish, davlat ta'lim standartlarini kompetentsiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o'quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriyetish, maktabgacha ta'lim muassasalarining qulayligini ta'minlash, maktabgacha ta'lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish hamda pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirishni taqozo etadi.

Ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yishda, eng avvalo, Janubiy Koreya, Yaponiya, Germaniya, Belgiya, Fransiya kabi rivojlangan xorijiy

mamlakatlardagi maktabgacha ta'litmiz faoliyatini keng o'rganish zarur hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Koreya Respublikasi Prezidenti Mun Chjelining taklifiga binoan 2017 yilning 22-24- noyabr kunlari davlat tashrifini amalga oshirdi. Koreya Respublikasiga davlat tashrifi doirasida Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan 20 ga yaqin uchrashuvlar o'tkazilib, tajriba almashinuvi, O'zbekistonda eksperimental tarzda bolalar bog'chalarini ochish, birgalikda kadrlar tayyorlash va ilmiy izlanishlar olib borish imkoniyatlarini o'rganib chiqish bo'yicha kelishuvlarga erishildi. Safar doirasida O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan Koreyaning qator maktabgacha ta'lim va boshqa turdag'i muassasalariga tashriflar uyushtirildi va ularning faoliyati o'rganildi. Bog'chalarning o'ziga xosjihatlari, qo'llanilayotgan ta'lim berish uslublari, moliyalashtirish va to'lov



tizimlari, pedagogik xodimlarning malaka darajasi va xizmat sharoitlari, oziq-ovqat va moddiy-texnik ta'minot hamda sohalarga tegishli dasturlar va uslublar atroficha o'rganildi.

Maktabgacha ta'lismi tizimi Germaniyada ham ta'lismi tizimining muhim bosqichi hisoblanadi. Bog'chalarni mablag' bilan ta'minlash turli jamoat tashkilotlari, xayriya birlashmalari, korxonalari, xususiy shaxslar, diniy muassasalar zimmasida. 1996-yildan boshlab bolalar bog'chasiga qatnash uchun huquqiy me'yorlar ishlab chiqildi. Bolalar bog'chasiga farzandlarni berish ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi. Bolalar bog'chasiga qatnash uchun ota-onalardan ularning daromadiga qarab ma'lum miqdorda to'lov olinadi. Maktabgacha bolalar bog'chasi tayyorlov sinflari va kirish guruhlari maktab ta'limining birinchi bosqichiga kiradi.

Fransiya ta'limida bolalarning go'daklik chog'idanoq maktabda o'qitish uchun tayyor holda olib kelish g'oyat muhim masala hisoblanadi. Tarbiyalanuvchilar kichik guruh (2-4 yosh), o'rtaguruh (4-5yosh), katta guruh (5-6 yosh) tarzida tabaqalashtirilgan maktabga tayyorlov guruhi (5-6 yosh) bo'lib, ularga Fransiyada 100% shu yoshdagi bolalar qamrab olingan. Bolalarni maktabga tayyorlash uchun alohida dastur va darsliklar mavjud.

Bugungi kunda O'zbekistonda ham xorij tajribalariga uyg'un holda maktabgacha ta'lismi tizimi tubdan isloh qilinmoqda.

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lismi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konseptsiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari rejasi ishlab chiqildi.

Maktabgacha ta'lismi muassasalari bazasini ta'minlash maqsadida o'quv qo'llanmalar, didaktik o'yinlar, o'yinchoqlar, asbob-uskunalar Janubiy Koreya va boshqa rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi asosida tashkil qilinmoqda. Ta'limgitarbiyasifatini yaxshilashga xizmat qiluvchi zamonaviy texnik qurilmalar bilan jihozlashda bolalarning sog'lig'ini saqlash zarurligini inobatga olinmoqda. Maktabgacha ta'lismi tizimiga va ta'lismi dasturlariga bo'lgan talablar eng ilg'or xorijiy tajribalarni o'rgangan va unga ijodiy yondoshgan holda takomillashtirilmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lajak bolalarining erta ta'lismi olishlarida sifatli ta'lismi olishlari, ta'lismi tizimining keyingi bosqichlarida poydevor bo'ladi. Bunda barcha ota-onalar farzandlarining erta ta'lismi olishlari uchun turli xil maqsadlar, talablarni joriy etsalar maktabgacha ta'lismi tashkilotlarida ham talablar asosida sifatli raqobat shakllanishiga olib keladi. Bolaning salohiyatlari to'g'ri tanlangan maktabgacha ta'lismi tashkilotida erta ta'lismi olishning turli xil shakllari rang barang tarzda ishlab chiqiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'litmizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi. Toshkent sh.,2019 yil 8 may , PQ-4312-son.
2. Achilov A.M. Akramov J.A. Goncharova O.V. "Bolalarning jismoniy



sifatlarini tarbiyalash". T.: O'zbekiston, 2004 y.

Haydarov B.T. Xolboyeva G.X. Maktabgacha ta'limgashkilotlarida jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi darslik 2020

3. M.X.Tadjiyev, S.I. Xusanxodjayeva, "Maktabgacha yoshdagি bolalar jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi". 2017 yil. Toshkent. "Iqtisod- moliya".

4. "Ilk qadam" Maktabgacha ta'limgassasining Davlat o'quv dasturi. Toshkent 2018-yil.

5. B.T.Haydarov, A.K.Eshtayev, G.X.Ibroimova. "Maktabgacha ta'lim muassasalarida gimnastika mashg'ulotlarini tashkil etish usullari". O'quv - uslubiy qo'llanma. Samarqand - 2019 yil.